



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XORAZM VILOYAT KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

6-dekabr 2023-yil.

242-son

Urganch shahar

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga
qarshi kurashish tizimini yanada
takomillashtirish hamda davlat organlari
va tashkilotlari faoliyati ustidan
jamoatchilik nazorati tizimi
samaradorligini oshirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi PF-200-sonli farmoni ijrosi
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-sonli farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bosh boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari (M.Otajanov), Komplaens nazorat (Z.Xodjayev), tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshliqlari, Urganch shahar “Ishga marhamat” monomarkaz va kasb-hunarga o‘qitish markazlari direktorlari Farmonning 1-bandida joriy qilinayotgan tizimdan kelib chiqib, bosh boshqarma va uning tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga oid jinoyatlarni oldini olish yuzasidan tegishli choralarni ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Farmonning 3-bandiga muvofiq, ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati to'ldirilayotganligi munosabati bilan

▪ Bosh hisobchi (D.Xasanov), Axborot xizmati (Sh.Saparboyev)lar davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibini (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat);

▪ Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish (F.Durdiyeva), Axborot xizmati (Sh.Saparboyev)lar markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarda bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

▪ Bosh hisobchi (D.Xasanov), Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha bosh mutaxassis (I.Salayev) va Axborot xizmati (Sh.Saparboyev)lar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma'lumotlar, ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlarni bosh boshqarmaning <https://xorazm.mehnat.uz/oz> ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtirilish uchun mas'ul etib belgilansinlar.

4. Farmonning 5 va 6-bandlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarida **“Qayta aloqaning sirli mijozi”** tadbirlarini o'tkazishi munosabati bilan bosh boshqarmada tashkil qilingan ishonch telefonining doimiy ravishda ishchi holatdaligi, ma'lumotlar almashinuvi samaradorligi, qayta aloqaning mavjudligi, shu jumladan tezkorligi va belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi darajasini ta'minlash uchun bosh boshqarmaning Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bosh mutaxassisi (J.Otajonov) mas'ul qilib belgilansin.

5. Bosh boshqarma tizimidagi tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari boshliqlari, Urganch shahar “Ishga marhamat” monomarkaz va kasb-hunarga o'qitish markazlari direktorlari ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, “Ishonch telefoni” tashkil qilish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rsinlar.

6. Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig'i



Z.Ollakuliyev